


PERITONEUM



RAJABOV BEKZOD MADIRIMOVICH

■ Abdomen

dr_B.M

https://t.me/top_anatomydc | METODICHKA

QORIN SOHASI (ABDOMEN)


QORIN BO'SHLIG'I (CAVITAS ABDOMINIS)

QORIN DEVORLARI:

- qorin old-yon devori
- qorin orqa devori (bel sohasi)
- diafragma
- linea terminalis

QORIN SOHASIDAGI BO'SHLIQLAR:

- qorin parda bo'shlig'i (CAVITAS PERITONEALIS)
- qorin parda orti bo'shlig'i (SPATIUM EXTRAPERITONEALE)



■ Abdomen

dr_B.M

ABDOMEN:

- **QORIN** – qorin bo'shlig'i (CAVITAS ABDOMINALIS), uning devorlari (OLDINGI – YON DEVORI) va qorin bo'shlig'i ichki a'zolaridan iborat.

CHEGARASI:

- **YUQORIDAN** – qovurg'a ravog'i va xanjarsimon o'simta
- **PASTDAN** – yonbosh suyagi qirrasi (**CRISTA ILIACA**), chov burmasi, SIMFIZ
- **YON TOMONDAN** – o'rta qo'ltiq osti (**LESRAFT**) chizig'i

SOHALARI: qorin sohasi 2 TA ko'ndalang chiziq.

LINEA BICOSTARUM – X qovurg'aning eng pastki nuqtalarini tutashtruvchi chiziq.

LINEA BISPINALIS – spina iliaca anterior superior larni tutashtruvchi chiziq orqali 3 TA sohaga bo'linadi.

■ (a) EPIGASTRIUM


- *r. epigastrica I*
- *r. hypogastrium dextra II*
- *r. hypogastrium sinstra III*

■ (6) MESOGASTRIUM

- *r. umbilicalis V*
- *r. abdominalis lateralis dextra IV*
- *r. abdominalis lateralis sinstra VI*

■ (B) HYPOGASTRIUM

- *r. suprapubica VIII*
- *r. ilioinguinales dextra VII*
- *r. ilioinguinales sinstra IX*



■ Abdomen

dr_B.M

CAVITAS ABDOMINES:

■ QORIN BO'SHLIG'I –

DEVORLARI:

- **YUQORIDAN** – DIAFRAGMA
- **PASTDAN** – qorin bo'shlig'ini tos bo'shlig'idan ajratib turuvchi, chegara chizig'i (**LINEA TERMINALIS**)
- **ORQADAN** – BEL SOHASI (bel umrtqalari va bel mushaklari)
- **OLD-YON TOMONDAN** – qorin old – yon devorini xosil qiluvchi muskullar.

Qorin bo'shlig'i devorlarini ichki tamondan qorin ichi fassiyasi – **FASCIA ENDOABDOMINALIS** qoplab turadi.



Qorin bo'shlig'i 2 TA bo'shliqdan iborat:

— **CAVITAS PERITONEALIS** (qorin parda bo'shlig'i)

qorin pardaning **PARITEAL** va **VISSERAL** varaqlari orasidagi bo'shliq

— **SPATIUM EXTRAPERITONEALE** (qorin parda orti bo'shlig'i)

Qorin bo'shlig'i orqa devorini qoplovchi **PARITEAL** parda va bel muskullarini qoplovchi qorin ichi fassiyasi (**FASCIA ENDOABDOMINALIS**) orasidagi bo'shliq bo'lib, o'zida yog' klechatkasi va **EKSTRAPERITONEAL** a'zolari tutadi.



■ Peritoneum

dr_B.M

PERITONEUM:






- **QORIN PARDА** – bu ingichka shaffof plastinka bo'lib, asosi silliq tolali briktruvchi to'qimadan iborat **SEROZ** pardadir. Yuzasi **MEZOTELIY** bilan qoplangan.

2

- **PARITEAL** – qorin bo'shlig'i devorini ichki tarafdан qoplaydigan parda
- **VISSERAL** – qorin bo'shlig'idagi a'zolari n o'rovchi qorin parda.

QORIN PARDА bilan o'ralishiga qarab a'zolar **3 GA**:

1. **INTRAPERITONEAL** – qorin parda bilan xamma tomondan o'ralgan.
2. **MEZOPERITONEAL** – qorin parda bilan uch tomonlama o'ralgan.
3. **EKSTRAPERITONEAL** – qorin parda bilan faqat old tomondan o'ralgan.



ERKAKLARDA – qorin bo'shlig'i berk (tashqi muhit bilan aloqasi yo'q)



AYOLLARDA – qorin bo'shlig'i tashqi muhit bilan (bachodon nayi orqali) bog'langan

■ Peritoneum

dr_B.M

https://t.me/top_anatomydc | METODICHKA

FUNKSIYASI:

□ REZORBSOBSIYA

SO'RISH – qorin pardadagi limfa qon tomirlari orqali amalga oshiriladi

- **PARITEAL** qorin pardada (DIAFRAGMA sohasidagi qorin pardada ko'proq, TOS sohasida kamroq) amalga oshadi

□ TRANSSUDATSIYA

SEROZ suyuqlik – ishlab chiqarish (qorin parda qatlami va qon kapillyarlari devori orqali filtrlashini natijasida xosil bo'ladi)

- Normada 30-40 ml3
- **VISSERAL** qorin pardada amalga oshadi

□ XIMOYA

2 TURDA:

— GUMORAL

Immunaglobulin, erkin antitelo orqali amalga oshiriladi

— XUJAYRAVIY

Mokrofag, gronulatsitlar orqali amalga oshadi

□ PLASTIKLIK

CHEGARALASH – qorin bo'shlig'idagi yallig'lanish o'chog'ini **FIBRIN tolalari** sintez qilish orqali chegaralab tarqalishini oldini oladi



qorin parda **QAVATLARI**:

- **MEZOTELIY** – ichki organlarning sirtini namlaydi va ularning siljishini osonlashtirib bir – biriga yopiship qolishidan (**СПАЙКА**) asraydi.
- **BAZAL MEMBRANA**
- **STROMA**
- **QON – TOMIR**

XOSILALARI:

□ LIGAMENTA PERITONEI

qorin parda **BOYLAMLARI** – **PARITEAL** Q/P qorin devoridan orgonga yoki **VISSERAL** Q/P bir orgondan ikkinchi orgonga o'tishidan xosil bo'ladi.

Tuzilishiga ko'ra:

- **YAKKA** (qorin pardaning bir varag'idan iborrat):
 - *l. hepatorenale*
 - *l. duodenarenale*
 - *l. coronarium hepatis*
- **DUPLIKATURALAR** (qorin pardaning 2 ta varag'idan iborat):
 - *l. falciforme hepatis*
 - *l. triangulare dex et sins*
 - *l. hepatogastricum*
 - *l. hepatoduodenale*
 - *l. gastralienale*
 - *l. gastraphrenicum*
 - *l. gastracolicum*
- **OBLITERATSIYALANGAN** (qorin pardadan iborat bo'lmagan)

□ MESENTERIA

TUTQICHLAR – ichakni tutib truvchi Q/P **DUPLIKATURASI** bo'lib, o'zida qon – tomir, limfa va nervlar tutadi.

Joylashishiga ko'ra:

- **VENTRAL** (faqat boylamlar shaklida saqlanib qoladi, ya'ni bir orgondan ikkinchi orgonga o'tuvchi)
- **DORSAL** (qorin bo'shlig'i orqa devoriga brikuvchi ILDIZI ga egatutqichlar)
 - *mesenteria*
 - *mesocolon*
 - *mesoappendix*

□ OMENTA

CHARVI – oshqozonning cho'zilgan tutqichi bo'lib, orasida oz miqdorda yog' to'plami mavjud.

2 TA:

- **OMENTUM MINUS**
- **OMENTUM MAJUS**

□ PLICAE

qorin parda **BURMALARI** – ichidan tomirlar, kanallar va boylamlar o'tadigan **PARITEAL** Q/P duplikaturasidir.

3 TA:

- **P. UMBLICALIS MEDIANA**
- **P. UMLICALIS MEDIALIS**
- **P. UMLICALIS LATERALIS**

YUQORI qavatdagi a'zolar:

- Jigar va o't pufagi
- Oshqozon
- Taloq
- Oshqozon osti bezi
- 12 barmoq ichak yuqori qismi

■ YUQORI QAVATI

QAVATLARI:

■ PASTKI QAVATI

PASTKI qavatdagi a'zolar:

- Yo'gon ichak
- Och va yonbosh ichak
- 12 barmoq ichak pastki qismi

CHEGARASI:

- **YUQORIDAN: DIAFRAGMA**
- **PASTDAN: ko'ndalang chambar ichak tutqichi (MESOCOLON TRANSVERSUM)**

XOSILALARI:

charvilari:

- *omentum minus* (KICHIK CHARVI).
- *omentum majus* (KATTA CHARVI).

xaltalari:

- *burca hepatica* (JIGAR HALTASI).
- *burca pregastrica* (OSHQOZON OLDI HALTASI).
- *bursa omentalis* (CHARVI HALTASI).

va **VINSLOV TESHIGI** kiradi.

CHEGARASI:

- **YUQORIDAN: ko'ndalang chambar ichak tutqichi (MESOCOLON TRANSVERSUM)**
- **PASTDAN: kichik tos sohasiga o'tish chegarasi (LINEA TERMINALIS)**

XOSILALARI:

cho'ntaklari:


- *recessus doudenalis sup et inf*
- *recessus iliocecalis sup et inf*
- *recessus retrocecalis*
- *recessus intersigmoideus*

sinuslari:

- *sinus mesentericus dex* (ICHAK TUTQICH O'NG SINUSI).
- *sinus mesentericus sin* (ICHAK TUTQICH CHAP SINUSI).




kanallari:

- *canalis lateralis dex* (O'NG YON KANAL).
- *canalis lateralis sin* (CHAP YON KANAL).



Peritoneum

dr_B.M



OMENTUM MINUS:

Qorinparda old tomondan jigar pastki qirrasini (MARGO INFERIOR) orqa tomondan orqa qirrasini (MARGO POSTERIOR) aylanib o'tib, jigar visseral yuzasini qoplaydi.

- **KICHIK CHARVI** – **VISSERAL Q/P DUPLIKATURASIDAN** iborat bo'lib, jigar darvozasi (**PORTA HEPATICA**) dan oshqozon kichik egriligi (**CURVATURA MINOR**) va 12 barmoq ichak yuqori qismiga tortilgan **2TA BOYLAM** dan xosil bo'ladi.

- *lig. hepato gastricum*
- *lig. hepato duodenale*

Jigar 12 barmoq ichak boylami orasidan qon – tomir tizimi o'tgan:

- D** – ductus choledochus
- V** – vena portae
- A** – arteria hepatica propria

OMENTUM MAJUS:

Qorinparda oshqozon kichik egriligidan (**CURVATURA MINOR**) 2 ta varaqqaga ajralib, oshqozonni olda va orqa tomondan aylanib o'tib kata egriligidan (**CURVATURA MAJOR**) da yana birlashadi.

- **KATTA CHARVI** – **VISSERAL Q/P DUPLIKATURASIDAN** oshqozon katta egriligi (**CURVATURA MAJOR**) dan pastga ichaklarni oldidan yo'nalib TOS sohasigacha tushadi va qayrilib yana yuqoriga yo'naladi. Yuqorida ko'ndalang chambar ichak (**COLON TRANSVERSUM**) ni xamma tarfdan o'raydi.


Bu yerda oshqozon bilan ko'ndalang chambar ichak boylami xosil bo'ladi.

- *lig. gastrocolicum*

Ko'ndalang chambar ichak tutqichi (**MESOCOLON TRANSVERSUM**) meda osti bezi (**PANCREAS**) tamon yo'nalib, u yerda 2 ta varaqqaga bo'linadi. Oldingi **VISSERAL** varaqi yuqoriga ko'tarilib, charvi xaltaning (**bursa omentalis**) orqa devorini xosil qiladi. Pastki varaqi qorin orqa devoir bo'ylab pastga yo'naladi.

■ Peritoneum

dr_B.M



BURSA HEPATICA SINISTRA:

- **JIGAR CHAP XALTASI** – jigarning chap bo'lagi va DIAFRAGMA orasida joylashgan.

DEVORLARI:

- **YUQORI OLD TOMONDA:** DIAFRAGMA
- **PASTDA:** jigar chap bo'lagi pastki qirg'oqi
- **O'NG TARAFDA:** jigar o'roqsimon boylami (*lig. falciforme hepatis*)
- **CHAP TARAFDA:** oshqozon oldi qopchasi (**BURSA PREGASTRICA**)
- **ORQADA:** jigar tojsimon boylami (*lig. coronarium hepatis*) va chap uchburchak boylam (*lig. triangulare sinister*).

BURSA HEPATICA DEXTRA:

- **JIGAR O'NG XALTASI** – DIAFRAGMA va jigar o'ng bo'lagi orasida joylashgan bo'lib, unda jigarning o'ng bo'lagi (**LOBUS DEXTER HEPATICA**), o't pufagi (**VESICAE FELLAE**) joylashgan.

DEVORLARI:

- **YUQORI OLD TOMONDA:** DIAFRAGMA
- **PASTDA:** jigar o'ng bo'lagi pastki qirg'oqi
- **CHAP TARAFDAN:** jigar o'roqsimon boylami (*lig. falciforme hepatis*)
- **ORQADA:** jigar tojsimon boylami (*lig. coronarium hepatis*) va o'ng uchburchak boylam (*lig. triangulare dexter*)

Jigar o'ng xaltasida 2 TA BO'SHLIQ farqlanadi:

➤ **JIGAR USTI** bo'shlig'i:

CHAPDA – *lg. falciforme hepatis*

ORQADA – *lig. coronarium hepatis*

yon bo'shliqlar bilan **ALOQASI:**

1. **old tarafdan:** jigar pastki qirg'oqi (**MARGO INFERIOR**) orqali jigar osti bo'shlig'i bilan
2. **o'ng tomondan:** jigar o'ng bo'lagi erkin qirg'oqi orqali, o'ng yonbosh kanal (**CANALIS LATERALIS DEX**) dan **TOS** bo'shlig'igacha

2

➤ **JIGAR OSTI** bo'shlig'i:

YUQORIDAN – jigar visseral yuzasi



ORQADA – *lig. hepatorenale* va **PARITEAL Q/P**

yon bo'shliqlar bilan **ALOQASI:**

1. **lateral tarafdan:** o'ng yonbosh kanal (**CANALIS LATERALIS DEX**)
2. **chap tomondan:** oshqozon usti qopchasi (**BURSA PREGASTRICA**)
3. **orqa tomondan:** charvi teshiki (**FORAMEN EPIPLOICUM**) orqali, charvi qopchasi (**BURSA OMENTALIS**) bilan bog'langan

■ Peritoneum

dr_B.M



BURSA PREGASTRICA:

- **OSHQOZON OLDI XALTASI** – oshqozon (**GASTER**) oldi yuzasida va jigar chap bo'lagi (**LOBUS SINISTER HEPATICA**) orasida joylashgan bo'lib, chap tarafida **TALQ** joylashgan.

DEVORLARI:

- **YUQORI OLD TOMONDAN:** DIAFRAGMA, jigar chap bo'lagi va qorin old devori
- **ORQADAN:** kichik charvi (**OMENTUS MINUS**) va oshqozon yon bo'shliqlar bilan **ALOQASI:**
 1. **o'ng tarafdin:** jigar qopchasi (**BURSA HEPATICA**)
 2. **chap tomondan:** chap yonbosh kanal (**CANALIS LATERALIS SIN**)

BURSA OMENTALIS:

- **CHARVI XALTASI** – oshqozon (**GASTER**) ning orqasida joylashgan yoriqsimon bo'shliq.

DEVORLARI:

- **OLD TOMONDA:** kichik charvi (**OMENTUM MINUS**), oshqozon orqa devori va *lig. gastracolica*.
- **ORQADA:** meda osti bezi (**PANCREAS**) va yirik tomirlarni qoplovchi **PARITEAL Q/P**.
- **YUQORIDA:** jigar chap bo'lagi va dumli bo'lagi (**LOBUS CAUDATUS**).
- **PASTDA:** ko'ndalang chambar ichak va uning tutqichi (**MESOCOLON TRANSVERSUM**).

foramen epiploicum (CHARVI TESHIGI): charvi xaltasini (**BURSA OMENTALIS**) qorin usti bo'shlig'i bilan bog'laydi.



DEVORLARI:

- **OLD TOMONDA:** *lig. hepatoduodenale*.
- **ORQADA:** *lig. hepatarenale*.
- **YUQORIDA:** jigar dumli bo'lagi (**LOBUS CAUDATUS**).
- **PASTDA:** *lig. duodenarenale*.

■ Peritoneum

dr_B.M

https://t.me/top_anatomydc | METODICHKA



RECESSUS DUODENALIS SUP et INF:

- **12 BARMOQ ICHAK YUQORI CHO'NTAGI** – **FLEXURA DUODENA JEJUNALIS** orqa yuzasi chap yuqori tomonida joylashgan.

DEVORLARI:

- **OLD TOMONDA:** 12 barmoq ichak yuqori qorin parda burmasi (PLICA DUODENALIS SUP).
- **ORQADA:** qorin bo'shlig'i orqa devoir PARITEAL Q/P si.
- **YUQORIDA:** ko'ndalang chambar ichak tutqichi (**MESOCOLON TRANSVERSUM**).
- **PASTDA:** **FLEXURA DUODENAJEJUNALIS** ning yuqori qirg'oqi.

- **12 BARMOQ ICHAK PASTKI CHO'NTAGI** – **FLEXURA DUODENA JEJUNALIS** o'ng va pastki tomonida joylashgan bo'lib, juda kichik xisoblanadi.

RECESSUS ILIOCAECALIS SUP et INF:

- **KO'RICHAK YUQORI CHO'NTAGI** – yonbosh ichak (**ILIUM**) yuqorisida, ko'tariluvchi chambar (**COLON ASCENDENS**) ichakning o'ng tomonida joylashgan.
- **KO'RICHAK PASTKI CHO'NTAGI** – yonbosh ichak (**ILIUM**) ostida, ko'richak (**CAECUM**) o'ng tomonida joylashgan.



RECESSUS RETROCAECALIS:

- **KO'RICHAK ORQA CHO'NTAGI** – ko'richak (**CEACUM**) orqa tomonida joylashgan.

■ Peritoneum

dr_B.M

https://t.me/top_anatomydc | METODICHKA



SINUS MESENTERICUS DEX:

- **ICHAK TUTQICHI O'NG BO'SHLIG'I** – ingichka ichak tutqichi (**MESENTERIUM**) ning o'ng tomonida joylashgan uchburchak shakldagi bo'shliq.

DEVORLARI:

- **YUQORI:** ko'ndalang chambar ichak tutqichi (**MESOCOLON TRANSVERSUM**).
- **O'NG TARAQDA:** ko'tariluvchi chambar ichak (**COLON ASCENDENS**).
- **CHAP TARAQDA:** ingichka ichak tutqichi (**MESENTERIUM**) va yonbosh ichak (**ILIUM**) terminal qismi.
- **OLDIDA:** katta charvi (**OMENTUM MAJUS**).
- **ORQADA:** qorin bo'shlig'i orqa devoridagi **PARITEAL Q/P** bilan chegaralangan bo'lib, qorin parda ortida quyidagilar joylashgan:
V. CAVA INFERIOR, o'ng siydik yo'li (**URETER DEXTER**).

SINUS MESENTERICUS SIN:

- **ICHAK TUTQICHI CHAP BO'SHLIG'I** – ingichka ichak tutqichi (**MESENTERIUM**) ning chap tomonida joylashgan bo'shliq.

DEVORLARI:


- **YUQORI:** ko'ndalang chambar ichak tutqichi (**MESOCOLON TRANSVERSUM**).
- **O'NG TARAQDA:** ingichka ichak tutqichi (**MESENTERIUM**).
- **CHAP TARAQDA:** tushuvchi chambar ichak (**COLON DESCENDENS**).
- **OLDIDA:** katta charvi (**OMENTUM MAJUS**).
- **ORQADA:** qorin parda bo'shlig'i orqa devoridagi **PARITEAL Q/P** bilan chegaralangan bo'lib, uning ostida quyidagilar joylashgan **AORTA ABDOMINALIS**, chap siydik yo'li (**URETER SINISTER**) va pastki tutqich arteriyasi (**A. MESENTERICA INF**).

yon bo'shliqlar bilan **ALOQASI:**

1. **pastdan:** kichik TOS bo'shlig'i bilan.

Peritoneum

dr_B.M



■ **excavatio** (CHUQURCHA):

PARITEAL Q/P qorin orqa devor bo'ylab pastga yo'naladi va sigmasimon ichak (**COLON SIGMOIDEUM**) va to'g'ri ichak (**RECTUM**) ning yuqori qismini xamma tarfdan (**INTRAPERITONEAL**) o'ragandan keyin, to'g'ri ichakning oldingi yuzasidan yo'nalib: ayollarda 2 TA, erkaklarda 1 TA chuqurchani xosil qiladi.

AYOLLARDA:

- to'g'ri ichak bachadon chuqurchasini (**EXCAVATIO RECTO – UTERINA**)
- siydik pufagi bachadon chuqurchasini (**EXCAVATIO VESICA – UTERINA**)

ERKAKLARDA:

- to'g'ri ichak siydik pufagi chuqurchasini (**EXCAVATIO RECTO – VESICALIS**)

CANALIS LATERALIS DEX:

- **O'NG YON KANAL** – qorin yon devori bilan ko'tariluvchi chambar ichak (**COLON ASCENDENS**) orasida joylashgan.

yon bo'shliqlar bilan **ALOQASI**:



1. **pastda**: o'ng yonbosh chuqurchasi (**FOSSA ILIACA DEX**) orqali kichik TOS bo'shlig'i bilan.
2. **yuqorida**: o'ng DIAFRAGMA osti bo'shlig'iga ochilgan.

CANALIS LATERALIS SIN:

- **CHAP YON KANAL** – qorin yon devori bilan tushuvchi chambar ichak (**COLON DESCENDENS**) orasida joylashgan.


yon bo'shliqlar bilan **ALOQASI**:

1. **pastda**: chap yonbosh chuqurchasi (**FOSSA ILIACA SIN**) orqali kichik TOS bo'shlig'i bilan.
2. **yuqorida**: diafragma chambar ichak boylami (**lig. phrenicocolicum**) orqali TALOQ KO'R XALTASI bilan chegaralangan.



■ Peritoneum

dr_B.M



- **fossa (CHUQURCHALAR)** – kindik BURMALARI orasida joylashgan bo'lib, ular **3 JUFT**.

FOSSA SUPRAVESICALIS: Siydik pufagi ustida joylashgan chuqurcha bo'lib, O'RTA va MEDIAL kindik burmalari orasida joylashgan.

FOSSA INGUINALIS MEDIALIS (MEDIAL CHOV CHUQURCHA): MEDIAL va LATERAL kindik burmalari orasida joylashgan bo'lib, shu soha teri ostida

- chov kanali yuza xalqasi (**ANULUS INGUINALIS SUPERFICIALIS**) joylashgan.

FOSSA INGUINALIS LATERALES (LATERAL CHOV CHUQURCHA): LATERAL kindik burmasidan tashqi tarafda joylashgan. Bu chuqurchaga URUG' TIZIMCHASI botib kirishidan

- chov kanali chuqur xalqasi (**ANULUS INGUINALIS PROFUNDUS**) xosil bo'ladi.

PLICAE UMBILICALIS:

CHUQURCHALARNI xosil qilgandan keyin, **PARITEAL Q/P** siydik pufagi (**VESICAE URINARIA**) dan qorin bo'shlig'i oldingi devoriga o'tadi va kindik sohasigacha bo'lgan qismida kindik burmalarini (**PLICAE UMBILICALIS**) xosil qiladi.

- **KINDIK BURMALARI** – kindik sohasidan qorin oldingi devori bo'ylab qov sohasiga yo'nalgan **PARITEAL Q/P** duplikaturasi bo'lib, **5 TA BURMADAN** (1 TA TOQ va 2 TA JUFT) iborat:

P. UMBILICALIS MEDIANA (O'RTADAGI kindik burmasi): TOQ bo'lib, homila paytida kindikdan siydik pufagiga boruvchi siydik yo'li (**URACHUS**) o'tadi. Tug'ilgandan so'ng obliteratsiyaga uchrab o'rnida o'rta kindik boylami xosil bo'ladi.

— **LIG. UMBILICALE MEDIANUM**

P. UMBILICALIS MEDIALES (MEDIAL kindik burmasi): JUFT burma bo'lib, homila paytida kindikdan siydik pufagiga boruvchi kindik arteriyasi (**A. UMBILICALES**) o'tadi. Tug'ilgandan so'ng obliteratsiyaga uchrab o'rnida medial kindik boylami xosil bo'ladi.

— **LIG. UMBILICALE MEDIALE**

P. UMBILICALIS LATERALES (LATERAL kindik burmasi): JUFT burma bo'lib, orasida pastki qorin usti arteriya va venasi (**A et V. EPIGASTRICAE INF**) yotadi.

- **YUMOLOQ BOYLAM BURMASI** – kindik sohasidan qorin oldingi devori bo'ylab JIGARGA yo'nalgan **PARITEAL Q/P** duplikaturasi bo'lib, bu burma tarkibida:

— **LIG. TERES HEPATIS:** bu boylam kindik venasi (**V. UMBILICALIS**) ning obliteratsiyaga uchrashidan xosil bo'ladi.

■ Peritoneum

dr_B.M

https://t.me/top_anatomydc | METODICHKA

FOSSA:

